

IQTISODIYOTNI MODERNIZATSIYALASH SHAROITIDA INQIROZGA QARSHI BOSHQARUVNI TAKOMILLASHTIRISH

Rahimov Hayotjon Saydullayevich

Annotatsiya: *Ushbu tezisdagi korxonaning bozorda yashab qolishi, mamlakatimizda inqirozga qarshi huquqiy-iqtisodiy mexanizmni yaratish, tashxislashga qo'yilgan 3 talab va boshqalar haqida fikr yuritilgan.*

Аннотация: *В данной тезиси обсуждались выживание компании на рынке, создание правового и экономического механизма борьбы с кризисом в нашей стране, 3 требования к диагностике и т.д.*

Annotation: *In this thesis, the company's survival in the market, the creation of a legal and economic mechanism against the crisis in our country, 3 requirements for diagnosis, etc., were discussed.*

Kalit so'zlar: *o'sish sur'atlari, korxonalar, inqirozga qarshi mexanizm, tashxislashning yo'nalishlari.*

Ключевые слова: *темпы роста, предпринимательство, антикризисный механизм, направления диагностики.*

Key words: *growth rates, enterprise, anti-crisis mechanism, directions of diagnosis.*

Respublikamiz iqtisodiyotining barcha sohalarida o'sish sur'atlari kuzatilganiga qaramasdan shuni ta'kidlashimiz kerak-ki, bozor iqtisodiyotiga o'tish sharoitida korxonalarining iqtisodiy inqirozga uchrash holatlari boshqa iqtisodiy tizimlarga qaraganda faol yuzaga keladi. Chunki bu tizimda korxonalar mustaqil

sub'ekt sifatida faoliyat olib boradi.

Ular o'zlari ishtirok etayotgan iqtisodiy munosabatlarning barqaror sub'ekti bo'lishga harakat qilsa-da, bozor iqtisodiyotidagi kuchli raqobat ba'zi korxonalarni inqirozga yuz tutishiga sababchi bo'ladi. Inqiroz xatari deyarli har bir korxonaga o'z ta'sirini ko'rsatadi, uni vaqtida oldini olmaslik iqtisodiy taraqqiyotni orqaga tortadi yoki turg'unlikni keltirib chiqaradi.

Nobarqarorlikning bunday ko'rinishlarini bartaraf etish uchun davlat va korxonalar o'z vaqtida inqirozga qarshi strategik siyosat ishlab chiqishlari lozim, shunda yaqinlashayotgan xavfga qarshi profilaktik jarayonlar takomillashadi. Ammo masalaning boshqa tomoni mavjud bo'lib, unga asosan, *raqobat* - bu korxonani bankrot qilish hisobiga muvaffaqiyatga erishish degani emas, aks holda, tarmoqlarda monopol korxonalar soni ortib ketadi.

Mamlakatimizda inqirozga qarshi huquqiy-iqtisodiy mexanizmni yaratishning dolzarbligi shundaki, inqirozga qarshi tadbirlarni nafaqat davlatning huquqiy bazasiga asoslanib, balki korxonaning ichki boshqaruv siyosatini davolashdan kelib chiqib tashkil etish va bu yo'lda amaliyotni tajribali, bilimli va o'z ishiga fidoyi yondashadigan kadrlarni tayyorlash bilan erishish mumkinligidan iborat. Chunki, korxonada miqyosida inqirozga qarshi mexanizmni shakllantirishni bir ko'rinishi bilimli va malakali kadrlarni tayyorlash bo'lsa, ikkinchi ko'rinishi korxonani har qanday holatda bozordagi segmentini saqlab qolishga harakat qilishdir.

Korxonada yashab qolishi uchun o'zi harakat qilishi, innovatsion yangiliklarni davlat tomonidan imtiyoz yaratib berilmagan taqdirda ham o'zining ishlab chiqarish faoliyatiga tatbiq etishi zarur.

Mazkur maqsadga korxonada inqirozga qarshi boshqaruvning strategiyasi va taktikasini ishlab chiqmasdan erishib bo'lmaydi.

Tashxislashning maqsadi -o'rganilayotgan ob'ektga aniq va to'g'ri baho berish, korxonaning ishlab chiqarish, xo'jalik va moliyaviy faoliyatidagi mavjud bo'lgan muammolarni hosil bo'lish sabablarini aniqlashdir.

Tashxislash o'zida 3 talabni aks ettiradi:

1. O'z vaqtida inqiroz alomatlarini tan olish.

2. Tan olish natijalarining ishonchliligi.
3. Tashxislash jarayonining uzluksizligi.

Fikrimizcha, korxonada faoliyatini tashxislash - bu korxonaning iqtisodiy faoliyatini har tomonlama tahlil qilish, holatni aniqlash, boshqaruvni axborotlar bilan ta'minlash va xavf-xatar oldini olishning birlamchi chora-tadbirlarini ishlab chiqish bilan bog'liq bo'lgan jarayonlar kompleksni o'z ichiga oladi.

Tashxislash natijasida boshqaruv shakli va uslubi ishlab chiqilib amaliyotga tatbiq etiladi.

Inqirozni tashxislashning yo'nalishlari xilma-xil bo'lib, buni uchta katta guruhga bo'lib o'rganish mumkin:

- Korxonaning inqirozli holatini turli guruhdagi ko'rsatkichlar kompleksi asosida tahlil qilish.
- Korxonada iqtisodiy ahvolini reyting asosida baholash.
- Korxonada moliyaviy holatini omilli modellari yordamida baholash.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Sh.M.Mirziyoyev. Erkin va farovon, demokratik O'zbekiston davlatini mard va olijanob xalqimiz bilan birga quramiz. Toshkent "O'zbekiston" 2016
2. I.A.Karimov O'zbekiston -iqtisodiy islohotlarni chuqurlashtirish yo'lida. - T.: «O'zbekiston», 1995
3. A.V.Vahobov, T. S.Malikov. "Moliya" Toshkent - «Noshir» - 2012
4. Sh. Abdullayeva. Pul, kredit va banklar. Darslik. Toshkent-2003
5. www.edu.uz
6. www.pedagog.uz
7. www.tdpu.uz
8. www.ziyonet.uz